

ALISHER NAVOIYNING MILLIY INTERYERDA TUTGAN O‘RNI

Shodiyeva Moxira XusanovnaKamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqoladan Alisher Navoiyning o‘zbek milliy interyeriga qo‘shgan hissasi, me‘morchilikdagi o‘rni haqida yoritilgan va chuqur tahlil qilingan. O‘zbek interyer dizaynining uzoq o‘z tarixga ega ekani va buyuk mutafakkir allomalarimizning ko‘p sohalarda yuksalishlarga erishganligini hamda avlodlar uchun qoldirilgan cheksiz bilimlari faktologik materiallar asosida tushuntirib berilgan.

Kalit so‘zlar: milliy interyer, amaliy san‘at, me‘morchilik, bezak san‘ati, hunarmandchilik, maqbara, masjid Jome.

Alisher Navoiy yashab ijod qilgan davrlar Muvarounnahr va Xuroson madaniyatida katta o‘rinni egallagan. Asosan Navoiyning ona shahri Hirot gurkirab yashnadi, madaniyat va san‘atning yirik markaziga aylandi, mahobatli binolar, arxitektura ansambllari va imoratlarga o‘ziga xos milliy interyer dizayn bezaklari yaratilgan. Ana shu yaratuvchanlik va yuksalish jarayonida Alisher Navoiyning mehnatlari ulkandir.

O‘zbekiston Afg‘onistonning Hirot shahridagi Alisher Navoiy maqbarasida qurilish-tiklash va obodonlashtirish ishlari olib boradi. 2020 yil 19 oktyabrda qabul qilingan, Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga doir prezident qarorida mutafakkirning maqbarasini obodonlashtirish va ta‘mirlash doirasida O‘zbekiston rasmiylari afg‘onistonlik hamkasblari bilan birgalikda maqbarani joyiga borib o‘rgangan. O‘rganishlar natijasida an‘anaviy me‘morchilik, san‘at va bezak elementlaridan foydalangan holda maqbarani ta‘mirlash va tiklash loyihasi ishlab chiqildi.

Navoiy me'morchilik va bezak san'ati bilan yaqindan tanish bo'lib, uning rivojiga katta e'tibor bergan, me'mor, muhandis, naqqosh, koshitarosh kabi binokor ustalarga rahnamolik va homiylik qilgan. Bu haqida tarixiy hujjatlar bilan bir qatorda o'z asarlarida ham juda ko'p ma'lumotlarni topamiz. Navoiy, ayniqsa o'sha davrdagi Hirot arxitekturasining namunalari haqida ham qiziqarli ma'lumotlar yozib qoldirgan.

Bezak san'ati inson atrofidagi moddiy muhitni shakllantiradi, badiiy bezash uchun xizmat qiladi, unga estetik va g'oyaviy mazmun baxsh etadi. Bu san'at insonning xizmatidagi buyumlarga bezak bo'lib, shu bilan bir qatorda inson moddiy muhitining ko'rki, nafosati sifatida namoyon bo'ladi. Asosan me'morlik bilan bevosita bog'liq bo'lgan monumental bezak san'ati, jamoatchilik va ayrim shaxslar ehtiyoji uchun badiiy buyumlar tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan amaliy san'at, bayram, tomosha manzaralarini, sayrgohlarni, ekspozitsiyalarni, ko'pchilik e'tiboriga havola qilinadigan stend, vitrinalarni bezash bilan bog'liq bo'lgan bezash san'ati, badiiy loyihalashdan iborat bo'lgan dizayn turi hisoblanadi.

Bezak san'atining rivoji juda qadim zamonlardan boshlanib, xalq ijodining muhim sohasiga aylangan. U tasviriy san'at, badiiy hunarmandlik sohalari, badiiy sanoat, shuningdek xalq ustalari, rassomlar, haykaltaroshlar, dizayn ustalari faoliyati bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanadi.

Tarixchi Xondamirning ta'riflashicha, Alisher Navoiy Injil nahri bo'yidagi mashhur Musallo qarshisiga nihoyatda ziynatli "Ixlosiya" madrasasi va xonaqohi, ular yaqiniga go'zal hamda ko'rkam "Xalosiya" xonaqohi, g'arb tomoniga esa "Shifoiya" va "Safoiya" nomli shifoxona bilan hammom, "Unsiya" uy-joylar kompleksini qurdirgan. Bundan tashqari, Alisher Navoiy Xuroson muzofotida juda ko'p jamoat binolari – masjid, madrasa, rabot, hovuz, hammom va ko'priklar barpo ettirganki, ularning hisobi yuzdan oshib ketadi. Ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiyning binokorlik – qurilish hamda me'morlik obidalarini bezatish sohasidagi faoliyati juda keng masshtabda bo'lgan, u XV asr Xuroson arxitekturasiga katta ta'sir ko'rsatgan. Lekin, afsuski, yuqorida Xondamir guvohlik bergan arxitektura inshootlarining ko'pchiligi

saqlanib qolmagan, mavjud ayrim binolar esa hali yetarli darajada atroflicha o'rganilmagan. Mazkur bino va inshootlarning xalq turmushiga ko'rsatgan ta'siri haqida o'ylar ekanmiz, ko'z oldimizda Alisher Navoiy gumanizmining moddiy asosi va mohiyati yaqqol namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy binolarni ta'mirlash hamda bezatish sohasida ham katta hajmdagi va murakkab ishlarga oqilona rahbarlik qildi. Hirotidagi mashhur masjidi jome'ning ta'miri haqida Xondamir o'zining "Xulosatul-axbor" asarida quyidagi tarixiy habarni yozib qoldirgan. Alisher Navoiy "...903 yilning ramazon oyida (1498 yil, aprel-may) gumbazni va maqsura toqini ochishga amr qildi. Undan so'ng tajribali me'morlar va diqqatkor muhandislarning maslahati bilan mustahkam bo'lmagan ul binoni tuzatishga ishorat qildi, uning ikki tomoniga maqsura sup ava oliy darajali ayvon qurdirdi. Shu jihatdan ulkan toq mustahkamlandi va u ta'riflab bo'lmaydigan darajada mahkam bo'ldi. Va ul xayr-saxovatli binokor o'sha imorat hususida ko'p g'amxo'rliги tufayli har kuni o'sha sharofatli joyga tashrif buyurar edi. Ko'p kunlari etagini beliga qistirib, yollangan ishchilar singari ustalarga g'isht uzatardi va boshqa ishlar qilardi. Tez-tez o'sha yerdagi me'morlar, ustalar va kosiblarga qimmatbaho sarupolar kiydirardi va ko'p navozish va boshqa in'omlar bilan xushdilu hursand qilardi. Shunday qilib...uch-to'rt yillik ish olti oy muddat ichida tamomlandi.

Shoirning zamondoshi va shogirdi Xondamir murabbiysi Alisher Navoiy qurdirgan 54 rabot, 19 hovuz, 16 ko'prik, hammomlar, masjid-madrasalarni va boshqa jamoat binolarini nomma-nom sanar ekan: "Mahfiy qolmasinki, agar ul daryo saxovatlik amirning qimmat me'mori bilan qurilgan masjidlardan har birini mufassil bayon qiladigan bo'lsa, bu muxtasar uzayib ketadi",-deydi.

Alisher Navoiy, ayniqsa, badiiy asarlarida me'morchilik hamda imoratlarning milliy bezaklariga bo'lgan o'z munosabati, e'tibori, estetik qarash va g'oyalarini bayon etadi. Shoirning sevikli qahramonlari – me'mor, sangtarosh, naqqoshlarning ulug'lanishi bejis emas. Uning asarlarini o'qir ekanmiz, binokorlikka shuningdek bezak ishlariga oid juda ko'p terminlarni, qurilish jarayonlari tasvirini uchratamiz. Bu

o‘z navbatida o‘zbek me‘morchiligi tarixining ba‘zi masalalarini hal etishga, to‘g‘ri tushunishga yordam beradi.

Garchi dostonlarda aksariyat afsonaviy voqealar bo‘lsada, lekin ulardagi bino, imorat, qasrlar ko‘rinishi, ularning loyiha – tarhini tuzish, turli zeb-ziynatlar bilan bezaklash kabi tasvirlar real asoslangan. Shoir o‘zining arxitektura sohasidagi orzu etgan ideal binolarini tasvirlagan, shularning badiiy ifodasi o‘laroq o‘z zamonasidagi me‘morlik san‘atiga oid muomalada mavjud so‘z va iboralarni ishlatgan. Alisher Navoiy ta‘biri bilan aytganda, “afsona anga libosi mavzun”, ya‘ni aytilmoqchi bo‘lgan biror fikr, g‘oya va obraz uchun afsona badiiy zamin, fon bo‘lib xizmat qilgan.

Eng qadimiy yashash maskanlaridan biri turli xildagi o‘tovlar bo‘lgan. Bizning davrimizgacha “oq uy” va “qora uy” namunalari saqlanib qolgan. Alisher Navoiy zamonasida o‘tovlar, ayniqsa, ko‘chmanchilar, chorvadorlarning odatdagi uyi hisoblangan.

Oq uyga eshik rust, tungluk dog‘i,

Bo‘lib ko‘raka ev davrig‘a to‘k dog‘i.

Bir hikoyatda Bahromgo‘r sahroda “ikki-uch olochuq” joylashgan uylar qoshidagi daraxt soyasida mehmon bo‘lgani bayon etiladi. Olochuq ham o‘tovning eng oddiy bir turidir. Shu kabi Navoiy asarlarida binokorlikka oid juda ko‘p maxsus terminlarni uchratamiz. Bino qurishdagi zaruriy “masalihi” oddiy “g‘isht”ni shoir qadimgi o‘zbek so‘zi “kirpich”, loyni “bolchig’ ” so‘zlari bilan ataydi. Hozir unut bo‘lgan qator terminlarni ishlatadi, hatto qurilish jarayonlarini ham tasvirlaydi.

“Farhod va Shirin” dostonini varaqlaylik: Farhod xastaligidan hoqon diltang bo‘lib, uning chorasi uchun to‘rt bog‘ tarhin solidi va to‘rt qasr bino qiladi.

Alisher Navoiy har bir qasrga monand arxitektura tasviri va ularning betakror bezaklarini belgilar ekan, “uslub” so‘zini ishlatadi, binokorlikdagi hunarlarni ta‘riflay turib, ustalar mahorati masalalariga alohida e‘tibor beradi. Naqqoshlik san‘atidagi ornamentning shakl o‘zgarishi kabi murakkab xususiyatga ishora qiladi.

Hunarvarlarki qilg'aylar hunar fosh,
Agar xorotaroshu xoh naqqosh.
Biri hardam yo'nub yuz nav xora,
Ki qilg'ay havz yo farshu izora.
Biri har dam chekib yuz naqsh dilkash,
Ki har bir qasrni qilg'ay munaqqash...
Ko'runub har zamoni ko'zga bir shakl,
Ko'z olg'och bo'lg'usidur o'zga bir shakl.
Chu bo'ldi jilvagar ashkol yuz nav
Anga ham bo'lg'usi timsol yuz nav.

“Sabai sayyor” dostonidagi yetti qasr tasviri juda ajoyib. “To‘nlari birla uylari hamrang” bo‘lgan har qasr o‘z uslubiga ega, ularning bezaklari, tuzilishi, rangi, o‘zaro munosabati belgilangan.

“Ki qilib har biri bino bir qasr,
Har biri zeb ichinda ziynati asr...
Chun muhandislar ehtimom etti,
Har bir o'z qasrini tamom etti”.

Musavvir Moniyga har qasrni o‘zga bir rang bilan naqshband etish topshiriladi. Bino ichkarisi naqshinkoriy, tashqarisi esa koshinkoriy bezaklanishi uqtiriladi.

Kim necha Naqshbandi rang omez,
Bo'lg'oy ul qaslarda san'at rez,
Ko'rguzub san'at ichra yuz nayrang,
Aylagaylar bu qaslarni rang.
Qilsa ne rang ichini naqqoshi,
Toshi ham bo'lg'ay ul sifat koshi.

Alisher Navoiy davrida qurilib, bizning zamonamizgacha saqlanib qolgan qator arxitektura yodgorliklari orasida Samarqanddagi XV asrning ikkinchi yarmiga mansub Oqsaroy nomi bilan mashhur maqbara, Turkistonning Annov mavzuidagi masjid,

Toshkentdagi Yunusxon maqbarasi va Xo‘ja Ahror masjid-madrasalari bor. Hirotda esa, masjidi Jome va boshqa bir qancha yodgorliklar saqlanib qolgan.

Ko‘hna tarix sahifalarini varaqlar ekanmiz, ko‘z oldimizdan ajoyib me‘morchilik obidalari o‘tadi. Qadimiy imoratlar, inshootlarning har biri inson qo‘li bilan tiklangan, uning har bir g‘ishtida bobolar nafasi seziladi. Asl san‘atkorlar ijodi, fantaziyasi, mehnatlari o‘laroq tiklangan binolarda muayyan davr madaniyatining in‘ikosini ko‘ramiz. Nozik did, yuksak mahorat, yorqin daho bilan ijod etilib, barpo bo‘lgan yodgorliklar xalqning madaniy boyligi, faxri va g‘ururidir.

Shunday san‘at durdonalarini yaratgan me‘morlar, hunarmandlarga xalq farzandlari – oddiy ustalar taqdim etamiz. Necha asrlik ijodiy tajribasini o‘zida majassam etgan ustalar san‘ati avloddan avlodga o‘tib, sayqal topgan. Ular shajarasi ildizi yerga singib ketgan mangu barhayot ulkan daraxtni eslatadi. Lekin, afsuski, juda ko‘p me‘mor va bezak ustalar nomi saqlanmagan, bunga sabab tengsiz go‘zallik namunalarini yaratgan ko‘pgina me‘morlar o‘z nomlarini binolarda yozib qoldirmaganlar. Ammo ular yaratgan imoratlar va ularning ichki hamda tashqi bezak ishlari bir umr avlodlar hayotida o‘z qadrini saqlajak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 oktyabrdagi “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580-yillicini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori. <https://uza.uz/oz/posts/buyuk-shoir-va-mutafakkir-alisher-navoiy-tavalludining-580-y-19-10-2020>
2. Zohidov P. Sh. Me'mor san'ati. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent-1978.
3. Hakimov A.A. Markaziy Osiyo xalqlari amaliy san'ati tarixi. T., 2004.
4. Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. История искусства Узбекистана с древнейших времен до середины XIX века. М., 1965.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bezak_san'ati